

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FarDU.
ILMIY
XABARLAR-

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2025
IJTIMOIY FANLAR

НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

IQTISODIYOT

У.Р.Шадиев

Стратегическое планирование устойчивого развития туризма: международный опыт и рекомендации для Узбекистана	6
---	---

FALSAFA

G.G'.G'affarova

Raqamlashtirish jarayonining o'ziga xos xususiyatlari	15
---	----

Q.A.Pulatov

Jamiyatning huquqlari va imkoniyatlarini kengaytirish kontekstida sekulyar fikrlashning asosiy xususiyatlari va tarixiy shart-sharoitlari	20
---	----

J.A.Kayumov

Ijtimoiy xavfli harakatlarga moyil talabalar bilan individual ishlashda xorijiy tajribalardan foydalanish masalalari	25
--	----

K.P.Islamova

Sadriddin ayniy asarlarida jadidchilik faoliyatini jamiyat hayotiga kirib kelish shart-sharoitining yoritilishi	28
---	----

M.K.Soipova

Fazl ibn Ahmad ta'limotida jon tushunchasining falsafiy tahlili	33
---	----

O.T.Sharipova

Barkamol avlod tarbiyasida komil inson g'oyasining Xojagon ta'limoti asosidagi zamonaviy talqini	37
--	----

I.A.Suvanov

Axborot tahdidlarning namoyon bo'lishi va unga qarshi kurash zarurati	42
---	----

N.I.Hamroyev

Muhammad Abdo qarashlarida ayollar masalasi	47
---	----

A.A.Salmonov

Inklyuziv jamiyatning ijtimoiy-falsafiy mazmuni	54
---	----

B.M.Madaminov

Axloqiy tarbiyada milliy qahramonlik tuyg'usini shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy tahlili	59
--	----

F.S.Qosimov

Inson kapitalini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy zarurati va ahamiyati	62
--	----

J.M.Kholmuminov, D.R.Komilov

Yusuf Khas Hajib's worldview: philosophical analysis	70
--	----

X.J.Toshpo'latov

Jamiyatda viktimologik profilaktikani amalga oshirishning istiqboldagi strategik yo'nalishlari	74
--	----

M.M.Daliyeva

O'zbek xalqining adabiy merosida ekologik mas'uliyat va fidoyilik fazilatlarining analitik tahlili	78
--	----

S.X.Tolibova

Oiladagi obyektiv omillarning shaxs ma'naviy fazilatlarini shakllanishiga o'rni	81
---	----

U.M.Maniyozov

Innovatsiya tushunchasining mazmun-mohiyati, ilmiy talqinlari va ijtimoiy mohiyati	85
--	----

O.M.Karimov

Ijtimoiy-falsafiy omil sifatida mehnat erkinligi va uning insoniy taraqqiyotdagi o'rni	90
--	----

O'.M.Xamrakulov

Yoshlarda vatanparvarlik tuyg'ularini yuksaltirishning nazariy-metodologik asoslari	93
---	----

S.X.Mukarramov

Yangi O'zbekistonda rahbar kadrlar tayyorlashda boshqaruv madaniyatini rivojlantirishning konseptual va aksiologik asoslari	99
---	----

D.S.Ermatov

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy mentalitet shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarning falsafiy tahlili	103
---	-----

F.M.Abdillazov

Kambag'allik fenomenining jamiyat hayotida namoyon bo'lish shakllari va uni qisqartirish	
--	--



UO'K: 37.015.3:37.091.3(075.8)

BARKAMOL AVLOD TARBIIYASIDA KOMIL INSON G'OYASINING XOJAGON TA'LIMOTI ASOSIDAGI ZAMONAVIY TALQINI**СОВРЕМЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ИДЕИ СОВЕРШЕННОГО ЧЕЛОВЕКА В УЧЕНИИ ХОДЖАГОН И ЕЕ РОЛЬ В ВОСПИТАНИИ ГАРМОНИЧНОГО ПОКОЛЕНИЯ****THE MODERN INTERPRETATION OF THE IDEA OF THE PERFECT HUMAN IN THE KHOJAGON TEACHING AND ITS ROLE IN EDUCATING A HARMONIOUS GENERATION****Sharipova Oygul Tursunovna** 

Buxoro davlat universiteti professori, falsafa fanlari doktori (DSc)

Annotatsiya

Ushbu maqolada barkamol avlod tarbiyasida komil inson g'oyasining Xojagon tasavvufiy ta'limoti asosidagi zamonaviy talqini ilmiy-falsafiy jihatdan tahlil etilgan. Xojagon tariqatida shakllangan inson kamolotiga oid falsafiy tushunchalarning bugungi globallashuv davrida ma'naviy yechim sifatidagi ahamiyati yoritilgan. Komil inson modelidagi mehr-shafqat, xudbinlikdan yuz o'girish, jamiyatga foyda keltirish, ma'rifat va axloqiy yuksalishga intiluvchi shaxs obrazi yosh avlod tarbiyasida o'z dolzarbligini saqlayotgani asoslab berilgan.

Аннотация

В данной статье научно-философски проанализирована современная интерпретация идеи совершенного человека на основе суфийского учения Ходжагон в воспитании гармонично развитого поколения. Раскрыта актуальность философских представлений о совершенстве человека, сформировавшихся в тарикате Ходжагон, как духовного решения в условиях глобализации. Образ личности, стремящейся к милосердию, отказу от эгоизма, пользе для общества, просвещению и нравственному возвышению, представлен как важная основа воспитания молодежи.

Abstract

This article presents a scientific and philosophical analysis of the modern interpretation of the concept of the Perfect Human (Komil Inson) in the upbringing of a harmoniously developed generation based on the Sufi teachings of the Khwajagan order. The study highlights the relevance of philosophical concepts related to human perfection that were formed within the Khwajagan tariqah, emphasizing their significance as spiritual solutions in the age of globalization. The image of a person striving for compassion, selflessness, societal benefit, enlightenment, and moral elevation is shown to retain its importance in the moral education of today's youth.

Kalit so'zlar: Komil inson, Xojagon ta'limoti, tasavvuf, barkamol avlod, ma'naviy tarbiya, axloqiy yuksalish, insonparvarlik, milliy qadriyatlar, zamonaviy talqin, yoshlar tarbiyasi, falsafiy model, ma'rifatparvarlik, nafs tarbiyasi, ichki kamolot, fuqarolik jamiyati.

Ключевые слова: Совершенный человек, учение Ходжагон, суфизм, гармонично развитое поколение, духовное воспитание, нравственное возвышение, гуманизм, национальные ценности, современная интерпретация, воспитание молодежи, философская модель, просветительство, воспитание нафса, внутреннее совершенство, гражданское общество.

Key words: Perfect human, Khwajagan teaching, Sufism, harmoniously developed generation, spiritual education, moral development, humanism, national values, modern interpretation, youth upbringing, philosophical model, enlightenment, self-discipline, self perfection, civil society.

KIRISH

Bugungi kunda globallashuv jarayonlari, axloqiy inqiroz va ma'naviy qadriyatlarning yemirilishi tufayli jamiyatda barkamol shaxs tarbiyasi yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zero, har qanday taraqqiyotning asosida ma'naviy barkamol, axloqan toza, fidokor va mas'uliyatli inson shaxsiyati turadi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, islom tasavvuf an'analari, ayniqsa, Xojagon tariqatidagi komil inson ta'limoti bugungi kunda ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Xojagon ta'limotida insonning ichki yuksalishi, nafsni tarbiyalash, ruhiy poklanish va ma'rifat orqali Allohga yaqinlashish kabi g'oyalar markaziy o'rinni egallaydi. Bu ta'limotda komil inson modeli - nafaqat diniy, balki ijtimoiy-axloqiy ma'noda yetuk shaxs sifatida ifodalanadi. Bunday inson o'z nafsni ustidan g'alaba qozongan, jamiyat manfaatini shaxsiy xohishlaridan ustun qo'yadigan, fidokor va xalqparvar bo'lishi lozim.

Ushbu maqolada Xojagon ta'limoti doirasida shakllangan komil inson g'oyasining zamonaviy tarbiya tizimidagi o'rnini, yosh avlodning axloqiy-ma'naviy kamolotga erishishidagi ta'siri, shuningdek, ushbu ta'limotning milliy-islomiy qadriyatlar bilan uyg'un jihatlari tahlil etiladi. Maqsad – barkamol avlodni shakllantirishda Xojagon an'analari zamon talablari asosida qayta talqin etish va uni amaliyotda tatbiq etish imkoniyatlarini ochib berishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Abdulkholiq G'ijduvoni qarashlari zaminida ajdodlarimizning asrlar davomida shakllangan jamiyatning muayyan tizimini barqarorlashtirish va mustahkamlash, insonlar o'rtasida eng avvalo, o'zaro hurmat g'oyalari yotganligi Uchinchi Renessans poydevorini yaratish asosi bo'lgan ma'naviy muhitni sog'lomlashtirishda Abdulkholiq G'ijduvoni hayoti, hikmatli so'zlari, asarlarida ilgari surilgan ham diniy, ham dunyoviy ilmlarni uyg'unlikda o'rganish uslublari qadri ekanligiga e'tibor qaratilib, G'ijduvoniyaning bag'rikenglik, mehnatsevarlik, halollik, vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat kabi qarashlarining mohiyatini bugungi yoshlar ongiga singdirgan holda, jismonan va ma'nan sog'lom, har qanday tahdid va xurujlarga qarshi ma'rifat bilan kurasha oladigan avlodni tarbiyalashga xizmat qilishi ifodalangan.

Tasavvufiy hayot jarayoniga kirgan inson, komil inson darajasiga ko'tariladi. Ibn Arabiy komil inson g'oyasiga asos soldi va bu g'oya Fariduddin Attor, Jaloliddin Rumiy, Mahmud Shabustariy va ayniqsa Aziziddin Nasafiy tomonidan har tomonlama rivojlantirildi.[1]

Agar hamma odamlarni insoniyat desak, komil inson bu yagona insoniyatning qalbidir. U insoniylikning xulosasi hisoblanadi. U narsa hodisalar mohiyatini chuqur tushunadi. Uning bilimi keng, komil inson butun makrodunyo xossalariga ega.

Mutasavviflar insoni komil masalasida borliqlar orasida Allohni idrok etish qobiliyati ham faqatgina insonga berilganligini, ammo insonning bu qobiliyati zulmoniy va nuroniy pardalar bilan to'sib qo'yilganligini, inson dunyoda qilgan ibodati, zikri va xokazo solih amallari bilan ruhini moddiy olamning ta'siridan va hasadidan qutqarib, bu qobiliyatini yuzaga chiqarishini ifodalaydilar. Bu ish, sayru sulukning martabalarini bosib o'tish orqali amalga oshadi. Inson ruhida bu ma'naviy safarga tasavvuf ta'limotida "sayri urujiy" deyiladi. Bu safarni tugatib, "vusul" maqomiga erishgan kishi ilohiy o'zligiga birlashib, mukammallashadi. Shu kishiga "insoni komil" deyiladi. Tasavvufiy manbalarida ifodalanishicha, olamning yaratilishidan maqsad inson, insondan esa maqsad komil insondir.

Komil inson mavzusida mustaqil asar yozgan Abdulkarim Jiliy bu masalani batafsil yoritgan. Uningcha, komil inson - atrofida butun borliq olami aylanayotgan bir qurbdur. Borliq yaratilgandan beri komil inson birdir va uning o'ziga xos haqiqati bor. Asl ismi Muhammad bo'lib, har asrda boshqa suratda va boshqacha nomlar bilan ko'rinadi. Dunyo yaratilgandan beri har xil payg'ambarlar shaklida ko'ringan ham komil insondir. Qiyomatga qadar eng ulug' valiy (qutb) ham u Jiliyning bu izohidan "insoni komil" - "Haqiqati Muhammadiya" bilan bir ekani kelib chiqmoqda. Shunday ekan, mutasavviflar "insoni komil" deganlari Muhammad a.s. ning haqiqatini namoyon etgan kishidir. Jiliyning yozishicha, "Muhammad a.s. har xil suratda ko'rinish qudratiga ega. Har zamon insonlarning eng komili suratiga kirib, ularning sha'nini yuksaltiradi. Suratiga kirgan kishilar zohiran Uning xalifalari, botinan esa - U, ularning haqiqatidir".[2]

Xojagon tasavvufiy tariqatida ham komil inson konsepsiyasi o'ziga xosdir. Yuqoridagi fikrlar asosida demak, komillikning asosiy mohiyati ruhiy jihatdan yuksalish ekan, bu yo'ldagi asosiy shartlarning avvali ma'nan poklanish ekanligi Abdulkholiq G'ijduvoniyaning "Vasiyatnoma", "Az guftor Xoja Abdulkholiq G'ijduvoni", "Maqsad as solikin" kabi asarlarida o'z aksini topgan. Pokiza aql insonni ruhiy jihatdan yuksaltiradi. Kishi hayotida axloqiy poklik birinchi darajali vazifadir. [3]

Shuning uchun Xojai Jahon ta'limoticha, har bir insonning eng birinchi vazifasi, burchi ma'naviy axloqiy poklikdir. Unda shaxs soflikni yashash qoidasi qilib qo'yishi lozimligi ta'kidlanadi. "Ki zi xislati pokiza-ki shud ahli kamol" deyiladi, ya'ni "kamolot ahlining yuksak darajasi ham shu tufayli" ekanligi aytiladi. Barchaga beminnat, ta'masiz yaxshilik qiladiganlarning qalbi mangu, o'lmas, abadiy, har qanday salbiy sifat va xususiyatlardan holi, pok kishilar ekanligi e'tirof etiladi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Komil inson tariqatda doimo haqiqatga erishish uchun ruhan poklanib boradi. Ushbu tariqatda bunday harakatning ma'nosi tarkidunyochilik emas, tabiat ato etgan aql idrok, fahm - farosat bilan, ham diniy irfon, ham jamiyatda, oilada, kishilar orasida hamjihatlik, baxtli saodatli nihoyatda pokiza hayotni qurish, xayrli, savobli, ishlar qoldirish, yaxshilik, ezgulikni ko'paytirib, yaramaslik, yovuzlikka barham berish, Vatan uchun fidokorlik kabilardir.

FALSAFA

Shunday hayot kechirgan taqdiridagina inson Tangri rizoligiga erishadi. Shuning uchun Abdulxoliq G'ijduvoni "bandaga Haqning roziligidan ortiq narsa yo'qdir, Xudo ham pokiza xislatli marddan rozidir",-deydi. Hayotdagi tashvishli holatlar insonni "g'aflat" dan uyg'otadi. U gunohlarini anglay borib, o'zini anglay boshlab, zohiran va botinan poklanadi. Shu tariqa haqiqiy insoniylik sifatlariga ega bo'ladi va mardlik maqomiga yetadi. Mardlik maqomiga yetgan shaxs ma'naviy axloqiy jihatdan yuksaladi. Ya'ni ruhiy yuksaklikka erishadi. [4]

Tasavvufiy manbalarda murshid, hakimlarning vazifasi va burchi odamlarni yomon amallar sodir etish, yomonlikka berilishdan qutqazish, najot toptirish va ularni uyquqlik holatidan uyg'otishdir. Bunday uyquqlik holatining sabablaridan eng muhimi – hissiyotlarga berilishdir. Hissiyotlik holati ruhiylik holatining qarama-qarshisidir. Hissiy intilishlar seziladigan jismaniy – jasadiy narsalarga qaratilgan bo'lib ongni bir tomonga yo'llaydi, botiniy, ichki jihatdan chetlashtirishga moyildir. Hissiyot, sezgilarga berilish – jismaniy tamoyilga harakatlanib, xom xayollarga botish demakdir. Shuning uchun barcha shayx, so'fiy va hakimlar hirsu havas, nafsni tiyishga chaqirganlar, bunday mayllarni aql bilish vositasida chegaralash, boshqarishga da'vat etganlar. Nafsoniy, hirsu havaslarga berilgan kishi haqiqiy insoniy sifat, xislatlardan chetda bo'ladi, pastga, quyiga qarab nuzul etishi haqida fikrlar bayon etilgan.

Mutasavviflar aytganlaridek, odam uchun asliy, haqiqiy, boqiy tomonini o'tar, foniy jismaniy-jasadiy jihatidan ayira bilishi, mushkul. Biroq bu borada tabiatning o'zi ko'pgina hayotiy hodisalar bilan mavjudotlar turli holatlarga aylanib, turli xil sifat xususiyatlar sohibi bo'lishi mumkinligini ravshan, ramziy yo'sinda namoyon etadi.

Professor M.N.Boltayev bu holatni quyidagi misol bilan tushuntiradilar. Bu borada ba'zi hakimu shayxlar tabiatda urug'dan pilla qurtini tug'ilishi va undan g'umbak yuzaga kelishi va g'umbakdan esa kapalak tug'ilishi hayotiy davrlarini yaqqol ramziy misol sifatida ko'rsatadilarki, bu dunyoda avval inson ruhini hululi, tug'ilishi undan keyin esa o'z zehni va xorijiy tomonlarni tushunib, amal qilish va nihoyat darajada ikkinchi tug'ilish-la ruhiy hayot holatiga o'tishi sodir bo'ladi. Mazkur ramziy misol shuni ko'rsatadiki, qurti yuzaga kelishi insonni jismaniy-jasadiy darajada vujudga kelishiga o'xshaydiki, mazkur holatda uning yashashi, hayoti xudbinlik, xudparastlikka asoslangan.

Xojai Jahon va u kishi singari boshqa so'fiylar va shayxlar o'zlarining haqiqiy, asliy tomonlarini noasliy jismaniy jihatlaridan ayira bilganlar. Jismaniy jasadiy holat vaqtinchaligini, asliy haqiqiy tomon uchun muayyan holat sifatida o'tarligini yaxshi anglab olganlar. Shuning uchun Xojagon tariqatida asliy tomonlarini anglagan shaxslar uchun o'lim vahimasi yo'q, ular zeroki, o'lim kishi uchun bir holatdan, ikkinchi holat, ikkinchi xil yashash tarziga o'tishdir, jismoniy jasadiy o'lim abadiy ruh, jon mavjudlik tarzining o'zgarishidir, degan g'oyani ifodalaganlar.

Shuning uchun Xojai Jahon "har doim oxirgi nafasga tayyor bo'l, ya'ni har bir nafasni oxirgi deb o'yla, har ishni o'z vaqtida qilki, g'aflat yuz tutmasin. "O'limga tayyorlik-umrni behuda o'tkazmaslik" deb ta'kidlaganlar.[5]

Abdulxoliq G'ijduvoniyni shogirdi Orif ar Revgariy ham ustoz ta'limotini davom ettirib, o'zining "Orifnoma" asarida bu g'oyani bayon etadi.

Bu xos ya'ni, ilohiy sifatlar bilan sifatlangan, odamlarning xususiyati ekanligi, dunyoga aldanib uning o'tkinchi ziynatlariga uchmaslikni, nafsga berilib, jism-jonga yomon, razil illatlarni ilashtirmaslikni, yomon, fosiqlik fikrlardan saqlanishni, barchaga xizmat qilishni, hech kimga xizmat buyurmaslikni, toatli bo'lishni, zohir va botinni doimo pok tutishni, mansabga intilmaslikni, kamtarin bo'lishni va doimo Qur'oni Karim tilovati bilan shug'ullanishni quyidagicha ifodalaydi:

"Sen har qachon dunyo oroyishiga aldanib, uning jilvagar ziynatlariga uchma, nafsoniy muroding talablarini faromush aylab, jismu joningga ilakishi mumkin bo'lgan razil illatlaru buzuq xayol va fosiqlik fikrlardan o'zingni mosuvo qil! Va barcha - barchaga molu joning bilan bab-baravar xizmat qilib va hech kimga nojo'ya xizmat buyurmagil, toat-ibodatning barcha arkonlariga sidqidildan rioya et. Zohir va botinni xiralik va quduratlardan pok aylab, o'zingni Oloh yo'lga to'la bag'ishla va hargiz yuksak mansab-u oliy daraja maqomotlarga talabgor bo'lma! Va faqiru g'aniylikda ahvoldingda hech qanday o'zgarish sezilmasin va hargiz shaxsiy manfaatlarga berilib senga Qur'oni Karim tilovati ila toat-ibodat etmoq malol kelmasin". Shuningdek, bu asarda dilning pokligi haqida pok va e'tiqodli bo'lish, "zeroki qora yurak, chirkin ko'ngil butun a'zoyi badanni palid (harom) qilgay!" deyiladi. [6]

Xojai Jahonga savol beradilar: "Dilning farog'ati nimadan hosil bo'lur?". Abdulxoliq G'ijduvoni dilning farog'ati uning tasfiyati-ya'ni pokligidadir. Agar ul dilga dunyo molidan zarrae

tama' bo'lmasa, dil farog'atda bo'lur, deb javob beradi. Inson hayotda doimo o'z ehtiyojlarini qondirish uchun mehnat qilib, mehnatining samarasidan foydalanadi. Agar hayotda yashash davomida nafsga berilib, "dunyo moliga, ya'ni nafsga "tama'" bo'lsa yomonligi ta'kidlanadi. Poklanishda tavbaning alohida o'rni borligini ta'kidlagan. G'ijduvoniylar tariqatlarida tavbaning asli nima deb so'raganlarida: "Tavbaning asli-ma'rifatning nuridir. Gunoh ishlarni qilish natijasida ma'rifatning nuri hijobga kiradi. Gunohlardan pushaymon bo'lib, uning olovida o'zini kuydirsa poklanadi. Natijada ma'rifatning nuri hijobdan chiqadi", deydi.[7]

"Bu poklanish, - deydi G'ijduvoniylar - sovun bilan poklanishdan ko'ra juda yuksak va abadiydir. Chunki sovun orqali jismonan poklangan narsa yana kir bo'lishi mumkin. Rahmat nurlari orqali gunohlardan poklangan tanada tabiat bilan uyg'unlik bo'ladi. Va shular amalga oshganda ko'z, qalb, jism bilan poklangan kishining ishlari yaxshi, ya'ni solih bo'ladi va haqiqiy mard bo'ladi." Qiladigan amallarini doimo sarhisob qilib, bilib - bilmasdan qilgan gunohlariga tavba qilib, boshqa bunday holatga yo'l qo'ymaslikka ahd qilib, ma'naviy- ruhiy yuksalishiga e'tibor berishi kerak. "Sovun bilan tozalanish"bu tashqi xatti-harakatlar, u agar qalban tushunilmagan bo'lsa, yana sodir etilishi mumkin. "Gunohlaridan pushaymon bo'lib, uning olovida o'zini kuydirsa", ya'ni, qalban tushunib, poklanib, soflanib ma'rifatli bo'lsa u ruhiy komillikka erishadi.[8]

Xudoga yaqinlashish, Parvardigorning vasliga yetish maqsadida mutasavvif Xudoning ismi, fe'lu sifatini ifodalovchi nomlarni zikr etishi, aytib takrorlashi lozimligini oldingi fikrlarda ham keltirganmiz. Bunday zikr etish ikki tur bo'lishi mumkin: sekin asta ovoz chiqarmasdan, qalb-la aytish, ikkinchidan, baland ovoz bilan, hatto, musiqa maqomi bilan zikr aytish mumkin.

Abdulkholiq G'ijduvoniylar ma'naviy merosida ham xufiya zikrning mohiyati, ahamiyati haqida fikr bildirgan. Sayyid Ahmad ibn Mavlono Jaloliddin Xojagi Kosoniy Mahdumi A'zam al Farg'oniylar (1463-1542) "To'rt kalima haqida risola", "Ilm haqida risola" nomli asarlarida Abdulkholiq G'ijduvoniylarning xufiya zikr bilan shug'ullanganliklari haqida "u kishi dilda zikr aytishni shayx Burhoniddin Qilichdan o'rgangan edilar", - deb yozgan.

"Ilm haqida risola" asarida Abdulkholiq G'ijduvoniylarning Yusuf Hamadoniylar tomonidan dilda zikr qilinadigan kishiga bir qancha tahorat shartligini bayon qilgani keltirilgan. "Birinchisi - qo'l tahorati hisoblanadi, ikkinchisi - quloq tahorati bo'lib, uni harom ovozlarni eshitishdan pok saqlamoq kerak, uchinchisi - til tahorati bo'lib, g'iybat, yolg'on va befoyda gaplardan tilni pok va ozod saqlamoq kerak, to'rtinchisi - qorin tahorati bo'lib, uni shubhali va harom oziq-ovqatdan, ichimlik va boshqa yeguliklardan pok saqlamoq kerak, beshinchisi - g'ofillar, dangasalar va johillar bilan suhbat qurmaslik kerak". [9] Bu bilan G'ijduvoniylar o'zini jamiyatda taqvodor, yuksak e'tiqodli deb hisoblab, shaklga e'tibor berib, hammani diqqatini o'ziga jalb qilib, "tashqi ko'rinishga zeb bermasdan" yashab, qo'lni, tilni, quloqni, "toza"saqlab, yeyish uchun emas, yashash uchun yeyishni maqsad qilishi, ham diniy, ham dunyoviy jihatdan "g'aflatda"qolib, loqayd, o'z burchini bajarmaydigan bo'lmaslikni, "johil", ya'ni, qo'pol, insonning qadrini bilmaydigan, mansab orqasidan quvadigan kishilardan uzoq bo'lishni tavsiya etadi.

Abdulkholiq G'ijduvoniylar xalq manfaatlarini yo'lida xizmat qilishga, uning yukini o'z zimmasiga olishga chaqiradi. Agar odam bu ishga qodir bo'lmasa, o'z yukini xalq ustiga tashlamay, biror kasbni egallab, halol mehnat bilan kun ko'rishi kerak: "Rashahot" muallifi "Dast ba koru, dil ba Yor", ya'ni "qo'l ishdayu, qalb ishqda (Olohdah)" shiorini birinchi marta Abdulkholiq G'ijduvoniylar aytganligini isbotlagan. Bu bilan xolis Tangri rizoligi uchun mehnat qilishga chaqirgan.[10]

Xojai Jahonning "Dari shayxiro band va dari yoriro kushoy, dari xilvatro band va dari suxbatro kushoy", ya'ni, odamlar uchun shayxlik eshigini yopgin-u, yordam eshigini ochish, xilvat eshigini yopib, suhbat eshigini ochish degan o'giti chuqur ma'noli, mazmunli, yuksak ma'naviy-axloqiy g'oyadir.

Xoja Abdulkholiq G'ijduvoniylar turli manbalarda qudsiy kalimalarning dastlabki to'rttasi ustozlari Xoja Yusuf Hamadoniylar tomonidan aytilganligini qayd etadi. Mazkur rashhalar Avliyoi Kabir, Bahovuddin Naqshband, Xoja Ahror, Sa'duddin Qoshg'ariylar, Abdurahmon Jomiy tomonidan sharhlangan va o'rganilgan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, yuksak ma'naviyat, aql-idrok tafakkur sohibi bo'lish insonga xos asosiy kamolot belgisi hisoblanadi. Xojai Jahonning komil inson konsepsiyasi insonni har tomonlama ma'naviy - axloqiy tarbiyalashga asoslangandir. Birovlarning maqtoviga uchmaslik, yomonlaganlarida xafa bo'lmaslik, balki tegishlisidan xulosa chiqarib olish, xalq bilan odobda muomala qilish, doimo odobli bo'lgan holda, barcha holatda, yaxshiga ham yomonga ham "lutfu

FALSAFA

marhamat” bilan muomala qilish, baland ovozda kulmaslik, bunday kulgu g’afolatning belgisi ekanligi, qo’ldan kelmaydigan narsa haqida gapirmaslik, kam yeb, kam ichib, kam uxlash, foydali mehnat bilan mashg’ul bo’lish, zarur bo’lgan holda gapirish kabi purma’no o’g’itlar, ma’naviy-axloqiy qoidalarining ahamiyati bebahodir.

Xojai Jahon insonni hamisha ruhiy-ma’naviy poklikka, kundalik amaliy faoliyatdan uzilmay, dilida Xudo bilan birga bo’lishga chorlaydi. Buning uchun inson hamisha yuksak imon-u e’tiqodga ega bo’lmog’i lozim. Boshqacha aytganimizda, inson faqat moddiy boylikka emas, ko’proq ma’naviy boylik, e’tiqod va imon tomon intilishi zarur. E’tiqod va imon Xudoga bo’lgan muhabbatning o’lchovidir. Imon-u e’tiqodni mustahkamlamoq uchun Qur’oni Karim va Hadisi Sharif yo’lidan bormoq kerak. Shuning uchun ham inson e’tiqodining asosida abadiy mavjud Xudo yotmog’i lozimligi barcha o’g’itlarida namoyondir. Bu tarki dunyochilikni rad etish, xilvatdan kechish, ular o’rniga suhbatni afzal ko’rish “xalq yukini ko’tarishga” intilish jarayoni tariqat ahlini ijtimoiy hayotga faol ishtirok etish demakdir.

Dunyoda faqat yaxshi ishlar qilish, boshqalarni ham shunga da’vat etish lozimligi, hatto yomonlarga ham yaxshilik qilib, ularni o’z qilmishlarining noto’g’riligini tushunib yetishlariga va ezgu ishlarni amalga oshirishlariga ko’maklashish lozimligi ta’kidlanadi.

ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Abdulxoliq G’ijduvoni. Vasiyatnoma. – B.176a.
2. Xoja Muxammad Orif ar Revgariy. Orifnoma. fors – tojik tilidan Sadridin Salim Buxoriy, Isroil Subxoniy tarjimasini. – T.: Navruz. 1994. – B. 4.
3. Maxdumi A’zam. Siyrati va me’rosi. Ilm haqida risola. T.: 1996. –B. 35.
4. G.Navro’zova Xoja Ali Rometaniy. Buxoro. 1994.-B.25
5. M.A.al Farg’oniy “Tert kalima haqida risola”.-B.13.
6. M.N.Boltaev. Xoja Abdulxoliq G’ijduvoni – insondo’sst hakim, Rif’at Shayh. Buxoro. 1994. –B. 31
7. Абдурахмон Жомий. Нафахот ул-унс мин ҳазоротул-қудс. Лакнав. 1399.
8. Абдурахмон Жомий. Рисолаи тариқати Хожагон. ЎзР ФА ШИ, инв. №8825/111. 3 varaq. 1769 йилда кўчирилган. Кўчирувчиси Мухаммад Ризо Оллоқули ўғли Хонақоҳий.
9. Абдурахмон Жомий. Калимоти қудсийяи Хожа Мухаммад Порсо. ЎзР ФА ШИ, инв. №10395/ III. 4 varaq. 1833 йилда кўчирилган.
10. Хожай Жаҳон - Хожа Абдулхалиқ Гиждувоний// Сўзбоши муаллифи академик М.М. Хайруллаев. Нашрга тайёрловчи, кириш, таржима ва изоҳлар муаллифи М. Хасаний. –Тошкент: Ўзбекистон, 2003. 125 бет.